XALQ DEPUTATLARI MIRZAOBOD TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 27 - may VI-49-102-9-125-K/22 Mirzaobod tuman hokimligi

Mirzaobod tumani T.Ahmedov MFYdagi “Bahmal” ko‘chasi nomini “To‘ra Sulaymon” deb o‘zgartirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining talablaridan kelib chiqib, “T.Ahmedov” mahalla fuqarolar yig‘ini aholisi tomonidan bildirilgan taklif va iltimosnomalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Mirzaobod tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Mirzaobod tumani hokimligi huzuridagi geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha tuzilgan tuman komissiyasining va “T.Ahmedov” mahalla fuqarolar yig‘inining bayonnomasi va iltimosnomalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. T.Ahmedov MFY hududidagi “Bahmal” ko‘chasi nomi O‘zbekiston xalq shoiri To‘ra Sulaymon nomiga “To‘ra Sulaymon” deb o‘zgartirilsin.

3. Tuman hokimligi huzuridagi geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha komissiya a’zolari, tuman hokimi o‘rinbosari R.Anorboyev, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (H.Sohibov) va “T.Ahmedov” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi (E.Jo‘rayev):

- bir xafta muddatda nomlar o‘zgargan geografik ob’yektning nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish;

- belgilangan tartibda zamonaviy ko‘rinishda, lotin yozuvida, peshlavhalarga

yozib o‘rnatish ishlarini tashkil etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni belgilasin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Xolqo‘ziyev), tuman ichki ishlar bo‘limi (B.Shodiyev), tuman davlat soliq inspeksiyasi (D.Djumayev), tuman statistika bo‘limi (O.Xazratqulov), tuman moliya bo‘limi (I.Sattorov), tuman “Yermulkkadastr” agentligi (D.Pirnozov) va tegishli mutasaddi tashkilot rahbarlariga:

- tuman ichki ishlar pasport bo‘linmasi tomonidan fuqarolarni ro‘yhatga olish va ro‘yhatdan chiqarish masalalari hamda fuqarolarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini rasmiylashtirilishida hududlarda geografik obyektlarning nomlari o‘zgarganligiga alohida e’tibor qaratish;

- mazkur qaror asosida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarni e'tiborga olgan holda tegishli idoraviy hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish;

- tuman hududida joylashgan mahalla fuqarolar yig‘ini hududiy bo‘linishi bo‘yicha joylashtirilgan peshlavhalar yozuvlariga o‘zgartirishlar kiritish vazifalari yuklatilsin.

5. Ushbu qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qaror “Mirzaobod” gazetasida chop etilsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Mazkur qaror bilan bog‘liq hujjatlar geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasiga taqdim etilsin.

8. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari, komissiya raisining o‘rinbosari R.Anarbayev va Xalq deputatlari tuman Kengashining ta'lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi (F.Abdurakakova) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **J.Yariyev**